



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



## ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH

**Saparova Saodat Ataxan qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi 3-bosqich talabasi*

*saparovasaodat91@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: dots.v.b.Kuldasheva.S.X.*

**Annotatsiya.** Maqolada tadqiqotchi olimlarning hozirgi kunda darslarda animatsiyadan to'g'ri va samarali foydalanish haqidagi fikrlari, umumiyo'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarida animatsiyadan foydalanish va uni hayotiy ko'nikmalarga bog'lash, animatsiyadan foydalanish afzalliklari hamda o'qituvchi uchun qanday qulayliklarni berishi haqida so'z boradi. Bundan tashqari maktab ta'limida 5-sinf o'quvchilari uchun ona tili darslarida animatsiyadan foydalanishning batafsil tahlil jarayonlari hamda ta'limdagi 4K yondashuvi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** animatsiya, roliklar, tahlil, lingvistik topshiriqlar, hayotiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi topshiriqlar, 4K yondashuvi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются взгляды современных исследователей и ученых на правильное и эффективное использование анимации на уроках родного языка в общеобразовательных школах и ее связь с жизненными навыками, преимущества использования анимации и удобство, которое она предоставляет учителю. Кроме того, представлен подробный анализ процессов использования анимации на уроках родного языка для учащихся 5-х классов в школьном образовании и краткий обзор подхода 4К в образовании.

**Ключевые слова:** Использование анимации, видео, анализ, лингвистические задачи жизненные навыки задачи, 4К подход.

**Abstract.** The article discusses the views of current researchers and scientists on the correct and effective use of animation in lessons, the use of animation in native language lessons in general secondary schools and its connection with life skills, the advantages of using animation and how it is convenient for the teacher. In addition, the detailed analysis of the use of animation in native lessons for 5<sup>th</sup> grade students in school education and the 4K approach to education are briefly reflected.

**Keywords:** Use of animation, videos, analysis, linguistic tasks, life skills tasks, 4K approach.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida ona tilini zamонавиј va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"[1]. Darhaqiqat, maktab ta'limida ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar yordamida o'tish bugungi kun tamoyiliga aylanib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda zamонавиј texnologiya va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi hamda o'zlashtirish jarayonini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

**Animatsion roliklar:** Animatsiya-multimediali texnologiyalar – tasvirning harakatlanayotganligini ifodalash uchun tasvirlarning ketma-ket namoyishi. Tasvir harakatini tasvirlash effekti sekundiga 16ta kadrdan ortiq videoharakatlarning almashinishida hosil bo'ladi[2]. Hozirgi kunda IT sohasi



rivojlanib borayotgan bir paytda multimedianing bir qismi bo'lgan animatsiya ham takomillashib bormoqda. "Animatsiyalar harakatlanishi, ranglarning uyg'unligi va o'zgarib har tusga kirishi, ovozning matn va harakatlarga mutanosibligi orqali o'quvchi shaxsining tuyg'ulariga (sezish, his qilish, rohatlanish, kayfiyatning ko'tarilishi) ta'sir o'tkazish mumkinki, bular o'qishga nisbatan individual maqsadni yuzaga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida ichki omillar hisoblanadi<sup>[3]</sup>. Asosan animatsiyalardan maqsadli foydalanish har bir pedagogning mahoratini va zamonaviy texnologiyalar bilan hamkorlikda dars o'tish ko'nikmasini rivojlantiradi. Odatda ona tili darslarini tashkillashtirishda animatsiyalar yaratiladi yoki tayyor animatsiyalardan darslarda foydalaniadi. Animatsiyalardan foydalanish darslarni samarali va qiziqarli o'tkazilishini ta'minlaydi. Xo'sh, bu jarayon o'qituvchi uchun qanday qulayliklarni beradi?

Animatsiyalardan foydalanish o'qituvchiga 2ta muhim muammoni hal qilishga yordam beradi:

1. Kasbiy faoliyat uchun ko'rgazmali yordam.
2. Dars materialini chuqurroq tushuntirish.

Ya'ni o'qituvchi animatsiyalardan foydalanishi ko'rgazma sifatida yoki mavzuni yashiroq, tushunarliroq tushuntirishga xizmat qiladi. Odatiy darslarda o'quvchida nazariyani o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirsa, animatsiyadan foydalanish tinglab tushunish ko'nikmasini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchida darsni tezroq va yaxshiroq tushunib olishiga ko'maklashadi. Multimedia, animatsiyalardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchiga qator afzalliklarni yaratishi tabiiy, albatta.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzlliliklarga ega:

1. Berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati;
2. Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining ortishi;
3. Ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida vaqt ni tejash imkoniyatiga erishish;
4. Olingan bilimlar kishi xotirasida ko'rish orqali saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi<sup>[5]</sup>.

Animatsiyadan foydalanish o'qituvchiga yuqorida muammolarni hal qilishga yordam beradi. Toshkent shahri Mirobod tumani 328-sonli umumta'lim maktabining 5-“G” sinfida 12 nafar o'quvchiga animatsiyadan foydalangan holda dars o'tildi. Bu animatsiya “Uy” nomli 6 daqiqalik animatsiya bo'lib, o'quvchilarga namoyish etildi.



Ushbu animatsion rolik asosida o'quvchilarga lingvistik va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi quyidagi topshiriqlar bajarish uchun berildi.

*1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.*

*2-topshiriq. Ijtimoiy tarmoqlar telefonga tegishli bo'lsa, kitoblar kimga tegishli? Fikrlaringizni jadvalga yozing.*



3-topshiriq. "Kitob va aql" mavzusida matn tuzing.

Birinchi topshiriqda berilgan savollar namunasi:

1-savol: Nima deb o'ylaysiz rolik avvalida kitoblar nega o'zlarini odamlarga keraksiz, deb hisoblashadi?

2-savol: "*Telefon: – menikilarni o'tkazib yubor!*" Ushbu gap qaysi fe'l zamonida aytilgan, gapda qaysi kelishik qo'shimchasidan foydalanilgan?

3-savol: Rolik so'ngida voqeani siz qanday yakunlagan bo'lardingiz?


Ushbu topshiriqdagi 1- va 3-savollar o'quvchini ijodiy fikrlashga undasa, 2-savol ularda o'rgangan grammatik mavzularni yana bir bor mustahkamlashga ko'maklashadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarda fe'l zamonlarini ajratish, ona tilida 6 ta kelishikni farqlash va ko'plik qo'shimchalarini aniqlash kabi 3 ta grammatik mavzularni teng o'zlashtirishga imkon beradi.

*Hayotiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi topshiriqlar:*

1. O'z hayotingizda 10 kun davomida ijtimoiy tarmoqlardan voz kechib, faqat kitob o'qishni odat qiling. Keyin shu odatlaringiz haqida fikr-mulohazalariningizni do'stlaringiz bilan o'rtoqlashing.

2. "Men bugun jurnalistman". Jurnalist sifatida do'stlaringiz yoki sinfdoshlarining har biridan eng oxirgi o'qigan kitobi va uning mazmuni haqida 2-3 daqiqalik intervyu tayyorlang.

*Natijalar tahlili.* Yuqoridaq topshiriqlar asosida quyidagi natijalar qayd etildi. (*Qarang: 1-diagramma*).



1-diagramma

Birinchi topshiriq ya'ni savollarga javob berish topshirig'ida 12 nafar o'quvchilardan:

2 nafari 98%,

2 nafari 95%,

1 nafar o'quvchi 86%,

1 nafari 80%,


1 nafar o'quvchi 65%,

2 nafari 46%

3 nafar o'quvchi esa 43% natijaga ega bo'lishdi. Baland ball olgan o'quvchilarda 1 ta yoki 2 tadan imloviy xatolarni ko'rsak, o'rta va past ball olgan o'quvchilarda 4 tadan 8 tagacha xatolarni uchratishimiz mumkin. Xatoga yo'l



qo'ygan o'quvchilarda, asosan, о va о' unlisi o'rinni almashish holatlarini hamda *i* harfi tushib qolgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin. (*Qarang. 2-diagramma*)



*2-diagramma*

Ikkinchi va uchunchi topshiriqlarda o'quvchilar juda yaxshi natijalarni namoyish etishdi. Ya'ni 12 nafar o'quvchidan 9 nafar o'quvchi 100% dan 98% va 86% oralig'idagi natijalarni qo'lga kiritishdi. Qolgan 3 nafar o'quvchilar esa 80% ball bilan topshiriqlarni yakunlashdi. Bu natijalar birinchi topshiriqdagi natjalarga qaraganda juda yaxshi ko'rsatkich deya baholandi. Chunki o'quvchilar bu natjalarni 2 hafta, ya'ni yarim oy davomida amalga oshirishdi. Aniqrog'i, 2 hafta davom etgan tajriba jarayonida shunday natija qayd etildi.

Bundan tashqari quyidagi topshiriqlarni ham tavsiya sifatida berishni lozim topdik:

*Topshiriq:* 2 guruhga bo'lining! 1-guruh telefonning foydalari haqida, 2-guruh esa telefonning zararlari haqidagi fikrlaringizni og'zaki ayting.

*Topshiriq:* Jamoaviy tarzda telefon va kitoblar haqida ko'rgazmali materiallar tayyorlang.

Hayotiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi topshiriqlar esa o'quvchida og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat ko'rsatadi. O'quvchi intervyu olish uchun avval gapiradigan gaplarini, beradigan savollarini albatta qog'oz yoki daftarga yozib olib intervyu olishga tayyorlanadi. Yozish orqali u to'g'ri savol tuzish ko'nikmasini ham ancha rivojlantiradi. Bundan tashqari bu ko'rinishdagi topshiriqlar o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish bilan birga ta'lim jarayonidagi **4K** yondashuvini takomillashuviga ko'maklashadi. Shu o'rinda **4K** yondashuviga ham biroz to'xtalib o'tsak. **4K** yondashuv bu o'zida 4ta ko'nikmani birlashtiruvchi jarayon hisoblanadi. Bular quyidagilar:

1. *Kritik fikrlash* – dalil va argumentlarni obektiv va mantiqiy tahlil qilish, sharplash va baholash, gipoteza, analiz, tahlil, tajribalar o'tkazish, faktlardagi bog'liqlikni topish.

2. *Kreativ fikrlash* – maqsadli va samarali amaliy jarayonni tashkil qilish, tanqidiy fikrlashni to'ldiruvchi yechimlar, innovatsion fikrlash, taklif berish, muammoni yangicha yondashuv bilan hal qilish.

3. *Kommunikatsiya* – o'quvchi doskaga chiqib fikrini bayon etishi, aloqa o'rnatish, muloqot, hamkorlik, fikrlarni samarali ifodalash, noverbal kommunikatsiya.



4. Kollaboratsiya – guruhli ish tashkil qilish, qayta aloqa va hamkorlik, loyihibar ustida ishslash, hamkorlik, guruh ishiga hissa qo'shish, tashabbus kabilardir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, kompyuter texnologiyalari, shu bilan bir qatorda multimedia sohasi ham rivojlanayotgan hozirgi kunda darslarda animatsiyadan foydalanish qanchalik to'g'ri va samarali ekanini yuqoridagi natijalardan ham bilib olish qiyin emas, albatta. Darslarda animatsion roliklardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb etish, kichik sinflarda darsni qiziqarli o'tish hamda eng asosiysi, o'rgatayotgan mavzularni yanada yaxshiroq o'zlashtirishga zamin yaratadi. To'g'ri, natijalar o'rtacha bo'lishi mumkin, ammo har darsda multimediadan foydalanib dars o'tish o'qituvchiga zamonaviylikni, ya'ni IT texnologiyalar bilan darsni yanada qiziqarlilik darajasini oshirsa, o'quvchilarda darsga qiziqish va har bir mavzuni tezroq va mustahkamroq o'zlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birgalikda ta'lim jarayonidagi bir qator yangiliklarga ham hissa qo'shadi. Biz o'tkazgan tajriba ham aynan ta'lim jarayoni rivoji uchun yana bir qadam bo'lib xizmat qiladi, deya olamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Muhammedova S., Abdullayeva M. va b. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 187 b.
3. Kuldasheva S.X. Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish. – O'zbekiston: Til va madaniyat, 86-93-b.
4. Ibragimov R.Q. O'quv animatsiyasi undan foydalanishning zamonaviy ta'lim usullari. Inter education & Global study 2024. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
5. Abdullayeva N.K., Jumaniyazova N.B. Ona tili va adabiyot o'qitishda multimediali ta'lim dasturlaridan foydalanish. Journal of integrated education and research; October, 2022.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/ZOXJ1814

#### **TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

**Sarimsakova Nigora Raxmatovna**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti*  
sarimsakovan9@gmail.com+998935897525

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Ilmiy-ommabop matnning asosiy mazmuniy tarkibiy qismlari hamda uni o'rgatishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar ko'rsatib o'tiladi. Maqolada talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini samarali rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-ommabop matn, emotsionallik, obrazlilik, kommunikativlik, metod, interaktiv metodlar, matn tahriri va tahlili.



Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. <i>ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIJ TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSALARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSALARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSALARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'iy INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

